

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NIYAZOVA DILDORA FURKATOVNA

**EKZERSITIV NUTQIY AKTLARNI DISKURSDA VOQELANTIRUVCHI
SOTSIOPRAGMATIK OMILLAR**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Science**

Niyazova Dildora Furkatovna

Ekzersitiv nutqiy aktlarni diskursda voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar 3

Ниязова Дилдора Фуркатовна

Социопрагматические факторы реализации экзерситивных речевых актов в дискурсе..... 27

Niyazova Dildora Furkatovna

Sociopragmatic factors of the implementation of exertive speech acts in discourse..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NIYAZOVA DILDORA FURKATOVNA

**EKZERSITIV NUTQIY AKTLARNI DISKURSDA VOQELANTIRUVCHI
SOTSIOPRAGMATIK OMILLAR**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2214 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyonet" axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shamahmudova Aziza Furkatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Djalilova Zarnigor Obidovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/ 83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz. Samarqand davlat chet tillar instituti bosh binosi).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 61784 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" yanvar dagi № 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.A.Yaxshiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S. Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyotida inson ijtimoiy hayotida nutqiy faoliyatning tutgan o'ri, uning samarali jihatlariga asos bo'luvchi vositalar tahlili bilan bog'liq tadqiqotlar ko'lami salmoqli o'rin egallamoqda. Binobarin, zamonaviy tilshunoslik fanlararo yondashuvlarni va bir qancha ilmiy sohalardagi masalalar hamda nazariyalarni qamrab oldi. Kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistika kabi sohalarning mazkur yondashuvlar bilan bir qatorda rivojlanishi, jahon hamjamiyati uchun yangi dolzarb muammolar yechimini topish zaruratini tug'dirdi. Shu sababli obyektiv voqelikning lisoniy tavsifi nolisoniy bilimlar bilan sezilarli darajada to'ldirildi, xususan, tadqiqotchilarga insonlarning turli xil lingvomadaniyatlarda muloqoti va munosabatlarini yaxshiroq tushunishni ta'minlaydigan yangi xulosalar berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida olamning milliy-lisoniy manzarasini qayta qurish, ilmiy adabiyotlarda nutqiy akt tushunchasining umum qabul qilingan ta'rifi va ularning yagona tan olingan tipologiyasi yo'qligi, turli tizimli tillarda harakatga undash nutqiy aktlarining faollashuvini madaniy hodisa sifatida ilmiy asoslanmaganligi ushbu mavzuni tadqiq qilishning dolzarbligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida ekzersitiv nutqiy aktlarning milliy-madaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro ilmiy faoliyatda til va nutq birliklarining lingvopragmatik tahlili performativ nutqiy aktlar, xushmuomalalik va o'zaro muloqot asoslari, shuningdek, boshqa lingvomadaniy, pragmatik nazariyalar doirasida amalga oshiriladi. Bunday tahlil ingliz tilida harakatga undash nutqiy aktlarining lingvomadaniy va pragmatik jihatlarini ochib berishga, muloqot jarayonida ularni to'g'ri talqin qilishga, til sohiblari tomonidan tinglovchini aniq nutqiy harakati vazifasini bajarishga undash imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida til va nutq tizimlarini zamonaviy tamoyillar asosida o'rganish, jahon ilm-fanida amalda bo'lgan ilg'or g'oyalarni ijodiy o'zlashtirish tajribasini shakllantirdi. Mamlakatimizda xorijiy tillar bo'yicha xalqaro dasturlarning joriy qilinishi pragmalingsvistika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga turtki bo'lmoqda. «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonda «xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-boqich o'tish»¹ masalasining kun tartibiga qo'yilishi zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847сонли "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. // Халқ сўзи, 09.10.2019. № 209 (7439).

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sotsiopragmatika ta’limotida yaratilgan tadqiqot ishlarda nutqiy akt masalasi borasida zamonaviy tilshunoslik uchun ahamiyatli bo‘lgan bir qator dolzarb fikrlar bayon etilgan. Shu o‘rinda, J.Ostin, J.Syorr, P.Grays, L.Kummings, X.Xaverkate, V.Eskandel, R.Fuentes, I.P.Susov, V.V.Bogdanov, G.G. Pocheptsov, Sh. Safarov, M. Hakimov, A.F. Shamaxmudova va boshqalarning konsepsiyalarini alohida qayd etib o‘tish lozim².

Xorijiy ilmiy tadqiqot markazlarida asosiy urg‘u ekzersitiv nutqiy aktlarning klassifikatsion xususiyatlarini aniqlash va funksional-semantik belgilarini ajratishga qaratilib kelinmoqda³. Shu bilan birgalikda, ekzersitiv nutqiy aktlarni

²Ostin Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 22-130.; Searle J.P. Expression and meaning. Studies in the theory of Speech Acts.– Cambridge: CUP, 1979. P. 48-53;Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol.3: Speech acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 45-58; Cummings L. Pragmatics. A Multidisciplinary Perspective. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2005. – 336 p.; Haverkate H. Aproximaciones pragmalingüísticas al español. – Amsterdam: Ediciones Rodopi, 1993. – 149 p.; Escandell V., María V. Introduction to pragmatics.– Barcelona: Ariel, 1999. – 278 p.; Fuentes R.C.Pragmatic linguistics and discourse analysis. Bibliotheca Philologica Series.– Madrid: Arco Libros, 2000. – 415 p.; СусовИ.П..Лингвистическая прагматика. – Вниинца: «НоваКнига», 2009. – 272 с.; Богданов В.В. Речевое общение. Прагматические и семантические аспекты. – Л.: ЛГУ, 1990. – 88 с.; Почепцов Г.Г. Коммуникативные аспекты семантики. – Киев: Вища Школа, 1987. – 131 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Т.: Akademnashr, 2013.– 176 б.

³ Любимов А.О. Средства выражения побуждения в португальском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1984. – 17 с.; Беляева Е.И. Модальность и прагматические аспекты директивных речевых актов в современном английском языке. Автореф.дисс. ... докт.филол.наук. – М., 1988. – 22 с.; Саранцаприл Ц. Речевые акты побуждения, их типы и способы выражения в русском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Н. Новгород, 1997. – 21 с.;

turli tizimli tillarda qiyoslash va chogʻishtirish usullari vositasida tahlil qilish tendensiyasi shakllanmoqda⁴.

Tinglovchini harakatga undash pragmatik moʻljaliga ega boʻlgan nutqiy harakatlarning ingliz tilida voqelanadigan anʼanalari ham, shubhasiz, tilshunos olimlarning diqqat nazaridan chetda qolmagan⁵. Ammo mazkur turkumdagi muloqot birliklarining ingliz tiliga xos lingvomadaniy va lingvopsixologik xususiyatlari, ularning voqelanishiga zamin yaratuvchi etnopragsmatik omillar qatorini belgilashga oid masalalar tadqiqi zaruratini eʼtirof etmaslikning iloji yoʻq. Umuman, harakatga undash pragmatik vazifasini ifodalash masalasining lingvopsixologik xususiyatlari tilshunoslikda tor koʻlamda oʻrganilgan mavzulardandir⁶.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Diskursni kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik oʻrganish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ingliz muloqot matnida ekzesitiv nutqiy aktlarning faollashuviga taʼsir etuvchi lisoniy va nolisoniy, xususan, etnopsixolingvistik, sotsiopragmatik, xususiyatlarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz lingvomadaniyatida nutqiy aktlar masalasi bilan bogʻliq nazariy qarashlarni tahlil qilgan holda ularning tasnifiy guruhlariga boʻlinish tamoyillarini koʻrib chiqish va umumlashtirish;

ekzesitiv nutqiy aktlarning muloqot muhitida faollashuvining ijtimoiy-madaniy oʻziga xoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun asosni aniqlash va aniqlangan madaniy dominantlar asosida uning xususiyatlarini ingliz lingvomadaniyati aspektida izohlash;

⁴ Яковлева Г.Г. Директивный дискурс в диалогическом пространстве разных языков: строевые и функциональные аспекты описания. Автореф. дисс. ... докт.филол.наук. – Тверь, 2005. – 22 с.; Маслова А.Ю. Коммуникативно-семантическая категория побудительности и её реализация в славянских языках (на материале сербского и болгарского языков в сопоставлении с русским). Автореф.дисс. ... докт.филол. наук. – М., 2009. – 25 с.; Сейтжанов Ж. Е. Инглизваўзбек тилларида ундаманинг киёсий тадқиқи. Филол.фан.номзодлиги дисс. – Т., 2012. – 20 б.; Мўминова А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларида ундашни ифодаловчи тил бирликларининг лингвомаданий хусусиятлари. Филол.фани бўйича фалсафа докт.дисс.автореф. – Т., 2018. – 22 б.;

⁵Плутцкая И.В. Социо и прагмалингвистический анализ единиц испанского речевого этикета. М., 1993. – 153 с.; Contreras J. El uso de la cortesía y las sobreposiciones en las conversaciones. Un análisis contrastivo alemán-español. – Valencia: Universidad de Valencia, 2005. – 178 p.; Hernández F. N. La cortesía en la conversación española de familiares y amigos. La búsqueda de equilibrio entre la imagen del hablante y la imagen del destinatario. – Denmark: Aalborg Universitet, 2002. – 261 p.; Santamaria G.C. La negociación del acuerdo en la conversación coloquial. Estudio contrastivo español-Inglés. Universidad Complutense de Madrid. Tesis de doctorado disponible en www.edice.org.

⁶Шевченко О.Л. Средства косвенного выражения побуждения в современном английском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Киев, 1985. 24 с.; Герасимова О.Н. О типах значений косвенных высказываний // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. – Калинин, 1985. – С. 150-158; Поспелова А.Г. Косвенные высказывания // Спорные вопросы английской филологии.- Л.: Изд-во ЛГУ, 1988. – С. 141-153.; Волкова А.Е. Импликация семантики побудительности в составе высказываний с непрямой формой побуждения // Вестник Волгоградского у-та. 2011. №1 (13). – С. 58-64.; Blum-Kulka S. Playing it safe: The role of conventionality in indirectness. In: Blum-Kulka, House y Kasper (comps.), Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. – Norwood, NJ: Ablex, 2000. – P. 31-37.

ingliz tilida harakatga undash nutqiy harakatlari lingvistik sinfining semantik, lingvopsixologik va sotsiopragmatik xususiyatlarini badiiy matnlar asosida izohlash hamda ekzersitiv nutqiy aktlarning lisoniy, ijtimoiy va madaniy o'ziga xosliklarini tahlil qilish;

ingliz tili so'zlashuvchilar orasida tajriba-sinov tariqasida o'tkazilgan so'rovnomaning natijalariga asoslanib, ushbu madaniyat vakillarining nutqiy harakatlariga ta'sir etuvchi etnosotsiopragmatik omillarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida ekzersitiv nutqiy aktlarning ingliz muloqot madaniyatiga oid badiiy asarlar va tajriba-sinov sifatida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tiliga taalluqli badiiy asarlar va so'rovnomada aks etgan ekzersitiv nutqiy ifodalashning sotsiopragmatik va psixolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasvirlash, kontekstual, konseptual shuningdek, intensional tahlil metodlari, hamda kommunikativ-pragmatik yondashuvlar muammolarni aniqlash va olingan natijalarni asoslash uchun ishonchli vosita bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nutqiy aktlar nazariyasiga zamonaviy yondashuv ila tanqidiy qarashlarning nazariy asoslarini inobatga olgan holda ularni tasnifiy guruhlarga bo'lish tamoyillari aniqlangan;

ekzersitiv nutqiy tuzilmalarni muloqot matnida voqelantiruvchi til tizimiga xos leksik grammatik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sotsiopragmatik va lingvomadaniy omillarni inobatga olish lozimligi asoslangan;

ingliz badiiy asarlari tahlili asosida ekzersitiv nutqiy aktlarning semantik, lingvopsixologik va sotsiopragmatik xususiyatlari izohlab berilgan hamdaintensional tahlil asosida ekzersitiv nutqiy aktlarning lisoniy, ijtimoiy va lingvopsixologik xususiyatlariga asoslanib nutqiy faoliyat olib borish kerakligi dalillangan;

sotsiolingvistik tajriba-sinov tariqasida o'tkazilgan so'rovnomaning natijalariga asoslanib, buyruq va iltimos nutqiy harakatlarining ifodalanishi muloqot ishtirokchilarining milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra idioetnik maqomga ega nolisoniy omillar bilan ham bog'liqligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ekzersitiv nutqiy aktlarning ingliz muloqot matnida voqelanishiga ta'sir etuvchi etnosotsiopragmatik omillarni, xususan, suhbatdoshlarning yoshi, o'qimishlilik darajasi, ijtimoiy maqomi, qiziqishi bilan bog'liq holdagi ustuvor jihatlarini ajratib, qayd etilgan natijalar diskursni kengroq tadqiq qilish imkoniyatini vujudga keltirishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

ekzersitiv nutqiy aktlarning ingliz tili sohiblariga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyatlari sotsiolingvistik tadqiq jarayonida o'tkazilgan tajriba sinov asosida kelib chiqqan xulosalar tahlili bilan bog'li ravishda tadqiqotlar va metodik ishlar olib borilishiga zamin yaratishi asoslangan;

diskursiv faoliyat jarayonida nutqiy aktlar turlarining tanlovi ijobiy yoki salbiy strategiyasi hamda hurmat kategoriyasi tamoyillariga tobe holda amalga

oshirilishi haqidagi ma'lumotlar ingliz tili ta'limini muqobillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va usullarning ishonchli manbalardan olinganligi, berilgan tahlil va mulohazalar, xulosalar, tavsiyalar amaliyotga joriy etilishi va olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishi va ochiq platformalar va ilmiy-amaliy anjumanlarda keng muhokama qilinishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, muloqot vaziyatida yuqori darajadagi kommunikativ natijaga erishish maqsadida nutqiy ta'sirning ingliz tilida tinglovchini harakatga undashga qaratilgan nutqiy tuzilmalarning muqobil vositalarini tanlash yo'llari hamda pragma-kognitiv mexanizmlari majmuasini nutqiy akt, diskurs nazariyasi, muloqot intensiyasi bo'yicha olingan natijalar kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik fanlarini yangi nazariy ma'lumotlar bilan to'ldirishda asos bo'la oladi. Ushbu lisoniy vositalarning tanlanishiga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va milliy-madaniy, pragmatik omillar tadqiqi muloqot jarayonida lingvopsixologik va lisoniy-madaniy omillarni me'yorlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari madaniyatlararo muloqot vaziyatida yuzaga keladigan pragmatik interferensiya va nomuvofiqliklarni ajratish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga imkon beradi. Shuningdek, taklif qilingan tadqiq usuli natijalaridan madaniyatlararo muloqot, pragmalingvistika, chog'ishtirma tilshunoslik, notiqlik san'ati sohalari bo'yicha o'quv adabiyotlari, lug'atlar tuzishda, ilmiy monografiyalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ekzersitiv nutqiy aktlarni diskursda voqelantiruvchi sotsiopragsmatik omillarni tadqiq etish jarayonida olingan nazariy va amaliy natijalari asosida:

nutqiy aktlar nazariyasiga zamonaviy yondashuv ila tanqidiy qarashlarning nazariy asoslari vositasida ularni tasnifiy guruhlariga bo'lish tamoyillariga oid xulosalardan ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish maqsadida Yevropa ittifoqining ERASMUS + dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: «Computational Linguistics at Central Asian universities» grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 15 dekabrda 1262/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarni lingvistik va muloqot qobiliyatini oshirish, pragmalingvistik kompetensiya sohasidagi bilimni oshirish hamda ta'lim tizimi jarayonini mustahkamlash va barqarorlashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuv sifatida xizmat qilgan;

harakatga undash nutqiy tuzilmalarining diskursda voqelanishiga ta'sir etuvchi sotsiopragsmatik va lingvomadaniy omillarni aniqlashga oid xulosalardan talabalarning ekstralingvistik bilim zahirasini oshirish maqsadida Yevropa ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DETEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masteres Programmes" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-

dekabrdagi 1261/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, chet tilini o'rgatishda intensional tagma'noli ifodalanishi sabablari til tizimiga xos leksik-grammatik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda olib borilishiga xizmat qilgan;

ingliz muloqot matnining intensional tahlili asosida ekzersitiv nutqiy aktlarning lisoniy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari asoslanganligiga oid xulosalardan til ta'limiga oid virtual resurslar yaratishni jadallashtirish maqsadida I-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-dekabrdagi 1265/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, sotsiopragmatik omillarning nutqiy strategiyaga ta'sirini aniqlash yo'llari "Nazariy grammatika va fonetika", "Qiyosiy tilshunoslik", "Lingvistik tahlil metodlari" kabi fanlarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz badiiy asarlari tahlili asosida ekzersitiv nutqiy aktlarning semantik, lingvopsixologik va sotsiopragmatik xususiyatlari izohlanishi natijasida Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi ko'rsatuv dasturlarida foydalanildi. Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil iyun oyidan sentabr oyiga qadar efirga uzatilgan "Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda nutqiy aktlar, ularning tasnifiy guruhlanishi, ekzersitiv nutqiy aktlarning psixolingvistik xususiyatlari tahlilidan foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 16-dekabrdagi 01.07/403 ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz muloqot madaniyatining ustuvor xususiyatlari va ularning diskursda faollashuviga ta'sir etadigan etnosotsiopragmatik omillar tavsifi mazkur dastur mazmunini boyitgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 140 bet bosma matnni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi hamda ilmiy yangiligi asoslangan, ishning asosiy maqsadi va vazifalari ta'riflangan, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqotning ishchi faraziga ta'rif berilgan, asosiy tadqiqot uslublari ko'rsatib o'tilgan, himoyaga olib chiqilayotgan holatlarga ta'rif berilgan, tadqiqot materiallarining joriy qilinishi natijalari qayd etilgan.

“Nutqiy aktlar nazariyasi tadqiqining asoslari” nomli dissertatsiyaning birinchi bobida nutqiy aktlarning tarkibiy va kommunikativ xususiyatlari, ushbu nazariyaning tarixiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Bundan tashqari, ekzersitiv nutqiy aktlar tushunchasiga ta’rif berilgan va uni nutqiy aktlar nazariyasiga kiritish shartlari aniqlangan.

Nutqiy muloqot inson faoliyatining eng muhim harakatlaridan biri bo‘lib, psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik kabi fanlarning o‘rganish predmeti hisoblanadi. “Muloqot tinglovchiga ta’sir o‘tkazish, uni muayyan harakatni amalga oshirishga undash uchun bajariladi... Muloqotga kiruvchi shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatishdan emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni tushunishga undashdan iborat”⁷. Buyuk Britaniyalik professor va faylasuf J.Ostin Harvard universitetida o‘qilgan ma’ruzalar turkumida falsafa chegarasidan chiqqan yangi nazariyasiga asos soldi. Ushbu nazariya uning vafotidan so‘ng olimning shogirdi tomonidan tuzilib, hozirgi paytda ancha mashhur bo‘lib ketgan «How to do things with words» (“So‘zlar bilan qanday munosabatda bo‘lmoq darkor”) asarida nashr etilgan⁸. Mazkur risolada nutq muayyan harakat sifatida ko‘rib chiqiladi. Tilshunos Blum-Kulka (2000:72) bu borada Ostinning muayyan lisoniy iboralarning kommunikativ qobiliyatining asl idrok etilishidan boshlab, kommunikativ harakatlar, ya’ni nutqiy aktlarning umumiy nazariyasigacha qamrab olgan yondashuvni taklif etganini ta’kidlab o‘tgan⁹.

Ushbu risolaning boshida J.Ostin haqiqatni tasvirlovchi yoki e’lon qiluvchi kontrastiv jumlar hamda so‘zlovchining harakatlarini ifodalaydigan performativ jumalarni ajratib ko‘rsatadi. Jumalarning ikkinchi turi aniq darajada, darak maylining hozirgi zamon birlikdagi birinchi shaxsida ifodalangan bo‘lib, *to declare, to promise, to threaten* kabi fe’llar nafaqat vaziyatni tasvirleydi, balki harakatlar uchun ham ishlatiladi. Ushbu farq quyidagi xulosaga kelish uchun asos bo‘la oladi: J.Ostinning fikriga binoan, performativ nutqiy tuzilmani shakllantirish uchun quyidagi shartlarga rioya etish lozim:

umume’tirof etilgan konvensional samaralarni ishlab chiqaruvchi umumiy qabul qilingan me’yorlarga amal qilish zarur;

nutq subyektlari va holatlar umumiy qabul qilingan me’yorlarga muvofiq bo‘lishi kerak;

umumiy qabul qilingan me’yorlar to‘lig‘icha va to‘g‘ri tarzda qo‘llanilishi lozim;

inson me’yorlarda belgilangan narsalarni o‘ylashi, his etishi va bajarishi zarur.

Muallif nutqiy aktlar nazariyasini shakllantirgan holda, har safar ma’lum nutqiy tuzilmani talaffuz etganda, biz aniq kommunikativ ta’sirga erishadigan akti voqelantiramiz, deb ta’kidlaydi. J. Ostinning fikrlariga ko‘ra, biron bir gapni talaffuz etish bir vaqtning o‘zida uchta akti amalga oshirishga tengdir:

⁷Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 106.

⁸ Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 22-130.

⁹ Blum-Kulka S. Playing it safe: The role of conventionality in indirectness // Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. – Norwood, NJ: Ablex, 2000. – P. 35.

lokutiv akt;
illokutiv akt;
perlokutiv akt.

Lokutiv akt yoki lokutsiya fonetik aktdan, ya'ni so'zlarga ajratilgan va grammatik jihatdan maqbul sintaktik tuzilishga ega bo'lgan ba'zi tovushlarni ajratib ko'rsatishdan iborat. J. Ostin qarashlariga binoan, ushbu holat "ma'lum tovushlarni, ma'lum bir tuzilma ichidagi va ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan so'zlarni talaffuz qilish"ini¹⁰ o'z ichiga oladi. Illokutiv akt yoki illokutsiya gapni tuzishda so'zlovchining niyatiga ishora qiladi. Va nihoyat, perlokutiv yoki perlokutsiya tinglovchiga ta'sir qilishni anglatadi.

Ba'zan, jumalarning tabiati tufayli, ushbu uchta akt o'rtasidagi chegaralarni belgilash murakkablashishi mumkin, ammo ularning muloqoti rasmiy va asosan semantik darajada sodir bo'ladi. Nutqiy aktlarining ushbu murakkab tasnifiga kelsak, biz V. Eskandellning fikriga qo'shilamiz. Olim ta'kidlashicha, "ushbu turdagi aktlar orasidagi farq birinchi navbatda nazariydir, chunki har uchala akt ham bir vaqtning o'zida va sinxron ravishda amalga oshiriladi. Biror narsa aytganda, biz muayyan samaralarga erishish uchun unga ma'lum bir ma'no beramiz. Biroq ularni farqlash qiziq, chunki ularning xususiyatlari har xil: lokutiv harakat ma'noga ega, illokutiv akt kuchga ega, perlokutiv akt esa natijalarga erishadi"¹¹.

Yuqorida ta'kidlanganlarni inobatga olgan holda, tadqiq etilayotgan iltimos nutqiy aktiga e'tiborimizni qaratsak, *Raise the glass of your window* jumlasida propozitsiyani iltimos yoki buyruqdan iborat bo'lgan illokutiv kuchdan, hattoki adresatning muayyan harakatni bajarishini o'z ichiga olgan, kutilgan samaralardan farqlash ancha qiyin.

J. Syorl keyinchlik J. Ostin taklif etgan nutqiy aktlar nazariyasini to'liqroq ishlab chiqdi va J. Ostin o'z tadqiqotlarida tasvirlagan elementlarning chuqurroq tahlilini amalga oshirdi. Aksariyat nazariyotchilar bu borada olimning amalga oshirgan ishlarini quyidagicha tasbiflaydilar:

nutqiy akti amalga oshirish uchun zarur bo'lgan eng kerakli jihatlarning mohiyatini tizimlashtirish;

nutqiy aktlar tasnifi;

bilvosita nutqiy aktlar tasnifi.

Nutqiy aktlarda nazariy qarashlardan foydalanish shunchalik muhimki, J. Syorl o'z kitobida bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Ushbu kitobning farazi shundaki, tilda gapirish ma'lum qoidalar bilan tartibga solinadigan xatti-harakatlar shaklida ishtirok etishni anglatadi hamda qoidalarga muvofiq harakatlarni amalga oshirishdan iborat"¹². Mazkur lingvistik hodisaga murojaat qilish uchun ushbu muallif bizning nutqimizni tartibga soluvchi parametrlar mavjudligini ta'kidlaydi. Olim tartibga soluvchi va konstitutiv qoidalarning qarama-qarshiligini taklif qiladi. Birinchilari doimiy xatti-harakatni tartibga soladi, ikkinchilari esa xatti-harakatni tashkil qiladi.

¹⁰ Austin W.J. How to Do Things with Words. Harvard University, Oxford: Clarendon Press, 1962. Online.

¹¹ Escandell V., María V. Introduction to pragmatics.– Barcelona: Ariel, 1999. – P.265.

¹² Searle J.R. Speech acts: An Essay in the Philosophy of language. – Cambridge: Cambr. Univ. Press. – 1969.–P. 79.

J. Syorl illokutiv harakatlarni shakllantirish va tushunish uchun 4 ta qoida yoki shartni taklif etgan:

1. Propozitsion mazmun qoidalari yoki shartlari: jumalarning semantik mazmuni;

2. Tayyorgarlik qoidalari yoki shartlari: ular nutqiy akti amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kontekstning xususiyatlarini aniqlaydilar;

3. Samimiylik qoidalari yoki shartlari: ma'ruzachi nutqiy akti bajarishda nimani o'ylayotgani va nimani istayotgani aniqlanadi;

4. Muhim qoidalar yoki shartlar: jumla haqiqattan ham u amalga oshiriladigan kontekstda nutqiy akt sifatida ko'rsatiladi.

Ushbu parametrlar barcha illokutiv harakatlar uchun amal qiladi va agar ushbu shartlardan biri bajarilmasa, natija muvaffaqiyatsiz bo'ladi¹³.

A.F. Shamaxmudovning fikricha, nutqiy aktning perlokutiv natijasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kontekst bilan bog'liq bir qator shartlar mavjud bo'lib, olim bu borada shunday deydi: "Illokutiv akt muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muloqot matnining o'ziga xos shart-sharoitlariga mos kelishi kerak. Ushbu shartlar turli xil illokutiv kuchlardan iborat bo'lib, ularning bajarilishi amalga oshirilayotgan nutqiy aktning turiga qarab muntazam ravishda o'zgarib turadi. Nutqiy aktlarni guruhlash ularni faollashtirish uchun taklif qilingan shartlar to'plami hamda nutqiy aktlarining aniq tabiati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu shartlar turli nutqiy harakatlarni bir-biridan farqlash maqsadida "filtr" vazifasini bajaradi"¹⁴.

J. Ostinning nutqiy aktlar tasnifini inobatga olgan holda, J. Syorl nutqiy aktlarning aynan illokutiv kuchiga asoslangan quyidagi tasnifni taklif etadi. Bizning nazdimizda, mazkur tasnif asosli bo'lib, ko'plab olimlar tomonidan ma'qullangan va bu boradagi keyingi tadqiqotlar uchun boshlang'ich nuqtaga aylangan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, olim nutqiy aktlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Reprezentativ yoki assertiv nutqiy aktlar: ular haqiqat deb da'vo qilingan axborotni bayon qilish bilan tavsiflanadi. Ushbu nutqiy tuzilmalar tushuntirish, tavsiflash, ishontirish va hokazolarning bir qismi hisoblanadi.

2. Direktiv yoki ekzersitiv nutqiy aktlari: ularning maqsadi adresatni biror harakatga undashdan iborat. Buyruq yoki maslahat berish, iltijo qilish, taklif qilish, ko'rsatma berish va boshqalar kabi fe'llar direktiv hisoblanadi.

3. Komissiv nutqiy aktlar so'zlovchini kelajakda harakat qilishga majbur qiladi. Ushbu guruhga va'da, kafolat, qasam, taklif va boshqalar kiradi.

4. Ekspressiv nutqiy aktlari propozitsion mazmuniga nisbatan psixologik holatni ifoda etadi, xususan tabriklash, minnatdorchilik bildirish, kechirim so'rash, hamdardlik bildirish va boshqalar.

¹³ Серль Дж.Р. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 170-194.

¹⁴ Шамахмудова А.Ф. Билвосита нуткий актларнинг мулоқот матнида вокелантирувчи этнопрагматик омилар (испан тили мисолида). Филол. фани бўйича фалсафа докт. (PhD)... дис. – Самарқанд, 2020. – Б. 112.

5. Deklarativ nutqiy aktlar yangi holatni e'lon qilish uchun fuqarolik yoki diniy formulalar qo'llaniladigan aktlar hisoblanadi. Ushbu guruhga turmush qurish, ishdan bo'shatish, nomlash va boshqalar kiradi¹⁵.

J. Ostin va J. Syorllarning fikriga ko'ra, tildan foydalanish lisoniy tuzilmalar bilan bog'liq qoidalar va shartlar bilan tartibga solinadi hamda muloqotda muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik maqsadida ularga samarali tarzda rioya qilishni taqozo etadi. Nutqiy aktlar nazariyasi ushbu nutqiy tuzilmalarni muayyan kontekstlarda o'rganish va turli vaziyatlarda ularning kommunikativ samaradorligini baholashga imkon beradi.

Nutqiy aktlar nazariyasi bizni strukturalistik yoki generativ turdagi lingvistik oqimlar tomonidan chetga surilgan elementlarni hisobga olishga undaydi. Shuning uchun nutqiy harakatlar amalga oshiriladigan kommunikativ vaziyatlarning situatsion va ijtimoiy-madaniy kontekstining elementlarini inobatga olish lozim, chunki bu borada izlanish olib borgan M.M.Buzrukova ta'kidlaganidek, nutqiy aktning ichki tuzilishining afzalliklari va turi aynan ushbu omillarga bog'liqdir¹⁶.

Mazkur nazariy mulohazalarni tadqiqotimiz doirasida ko'rib chiqishni lozim topdik, zero ekzersitiv nutqiy aktlarning ingliz muloqot matnida voqelanishi ushbu jamiyatga mansub, yuqorida aytib o'tilgan nolisoniy omillarga bog'liq holda turlicha amalga oshirilishiga amin bo'ldik. Ushbu holat kommunikativ vaziyatga, shuningdek, turli xil kommunikativ kontekstlarga va ijtimoiy-madaniy sharoitlarga qarab turli xil faollashuv shakllarini taqozo etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ekzersitiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik ko'lami”** deb nomlangan bo'lib, turli xil muloqot matnlarda ekzersitiv nutqiy aktlarni ifodalash uchun ishlatiladigan shakllarni aniqlashga qaratilgan. Bu borada u yoki bu kommunikativ kontekstga xos bo'lgan nutqiy tuzilmalarni shakllantirish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu bobda lisoniy vositalarning suhbatdoshlar o'rtasidagi simmetrik/gorizontal munosabatlarga va subordinativ/vertikal munosabatlarga bo'linishi mumkin bo'lgan turli xil kommunikativ vaziyatlarda harakatga undash maqsadida ishlatilishi aniqlandi.

Do'stlar, qo'shnilar, hamkasblar, notanish odamlar (xaridor-sotuvchi, tasodifiy sayohatchilar va boshqalar) yoki muloqotga kirishga majbur bo'lgan bir-biriga mutlaqo tanish bo'lmagan insonlar o'rtasidagi munosabatlar, uzoq ijtimoiy-psixologik masofada joylashgan teng suhbatdoshlarning muloqot holatiga kiritilishi mumkin. Ushbu kommunikativ kontekst kommunikantlar o'rtasidagi uzoq ijtimoiy-psixologik masofa bilan izohlanadigan direktiv illokatsion niyatni ifodalashning turli shakllari bilan ajralib turadi. Mazkur kommunikativ kontekstda rekvestiv direktiv nutqiy aktlardan foydalanish ommalashgan, chunki notanish yoki bir-biri bilan yaqindan tanish bo'lmagan kommunikantlar o'zaro muloqotga kirishganda, harakatga undash xushmuomala shakllar orqali ifodalanishi tabiiydir (shart mayli, so'roq nutqiy tuzilmalar kabi bilvosita shakllar va hokazo):

¹⁵ Searle J.P. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: CUP, 1969. – P. 121.

¹⁶ Бузрукова М.М. Илтимос нутқий актининг прагматик ва лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари материалларида). Филол. фани бўйича фалсафа докт. (PhD ...дисс. автореферати. – Самарқанд, 2021.- 60 б.

A boy... took the slimy one by the arm, very gently, and said:

– *Why don't you leave the lady alone?* (Hannah, 118).

Darvoqe, bardagi notinch vaziyatga qaramasdan, yigit sabr qilib, xotirjamlikni saqlashga urinmoqda.

– *I'm in a hurry to get back to the hotel. Could I get a taxi?* (Hannah, 285).

– *Has he a car? Margot asked. Will he take me with him?* (Casares, 247).

Ushbu misollarda harakatga undashni voqelantirishning xushmuomala tarzida ifodalangan so‘roq nutqiy tuzilmalariga murojaat qilinmoqda.

Seller: Hey, hey! Come and take a peaceful peek at the genre! ...Approach without fear (Valentine, 301). Bu yerda buyruq mayli vositasida ifodalangan taklif nutqiy aktidan foydalanilgan.

Tergovchi jinoyatni tergov qilayotib, o‘ldirilgan shaxsga aloqador bo‘lganlarni so‘roq qiladi:

– *Do me a favor - I said, - I'd like to talk to Sebastian* (Reid Taylor, 17).

– *Look, Tomás, we would like to know something about Ann, your neighbor who was murdered* (Reid Taylor, 25).

Sit down - I said. I would like to know if you had seen Jordan Ostin last night. (Reid Taylor 20).

– *You do me a favor, does Thomas live here?*

– *Yes, - he says with some uncertainty. Has something happened to him?*

– *As far as I know nothing has happened to him, but I would like to talk to him. I show him my ID* (Reid Taylor, 41).

Tergovchi - o‘ldirilgan kishining opasi, kekxa ayolga:

– *I beg your pardon for bothering me but...*

– *She doesn't listen to me, she sits down, bursts into tears.*

– *Although it is painful for us to pay you a visit when you are so sad, please help us* (Reid Taylor, 60).

Tergovchi – farmasevtga:

– *Please, have the kindness to open the closet again. ...He takes the amber bottle in his hands and looks at it.*

– *Please open it and check its content* (Reid Taylor, 126).

Misollardan ko‘rinib turibdiki, tergovchi notanish odamlarga xushmuomalalik bilan murojaat qilib, ham katta yoshdagi suhbatdoshlarga, ham o‘ziga tengdosh bo‘lgan suhbatdoshlarga murojaat qilishda harakatga undashning istak mayli (*I'd like to talk to Sebastian*), xushmuomala shakllari (*“have the kindness to open”*, *“Do me a favor”*) hamda ergash gaplar (*“I beg your pardon for bothering”*) kabi bilvosita usullardan foydalanadi. Afsuski, biz tergovchining mizoj turini aniq ajrata olmadik, chunki uning odamlar bilan muloqoti asosan rasmiy ish sharoitida yuzaga kelgan. Ushbu o‘rinda keltirilgan muloqot matnida (notanish suhbatdoshlardan iltimos qilish) bilvosita usul (istak mayli, shart mayli, so‘roq gaplar) undovni ifodalashning eng munosib usuli hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan muloqot vaziyatida tergovchi odobliligi va ehtiyotkorligi bilan ajralib turadi.

Ushbu vaziyatlarda, muloqotni boshlash va ma’lumot berishga undash huquqi har safar tegishli hujjatning namoyishi bilan boshlangan tergovchining vaziyatli

roli bilan ta'minlanadi. Agar usbu an'anaga amal qilinmasa, muloqotning murakkab tarzda kechishi ehtimoli ortadi. Tunda salohiyatli ish beruvchining uyini taqillatgan, ammo javob olmagan iste'dodli yosh yozuvchi (Charli) kommunikativ to'siqni qanday yengib o'tishini kuzatish qiziq:

Ostin: Excuse me, brother, please, and come back tomorrow, if you wish, at a more pleasant hour.

Charley: You know that I am a person of the trade.

Ostin. (With the door half closed, he suspiciously speaks through the crack): Tell me what you want.

Charley: I can't speak under these conditions. Don't slam the door, out of courtesy. (Frederic opens it a little more.) Don't even open it a crack, but open it frankly to a sure servant.

Ostin: Well, sir, and excuse me, that there are many robberies at night. Drop your errand and go.

Charley: Don't take it too hard on my part, but I'm freezing here with what's falling on this clear night. Let me enter that beautiful room for a while.

Ostin: All right, all right: come in, stubborn of all the devils, and excuse me, please, for my inadvertence (Valentine, 148).

Ushbu dialog ikkita sangvinik mizojiga mansub insonlar o'rtasida kechayotgan muloqotning ommalashgan namunasi. Ular dilkashlik, so'zamollik, quvnoqlik, beparvolik bilan ajralib turadi. Bunday fazilatlar ayniqsa Charliga xosdir. Sangvinik temperamentining undovni ifodalashning bilvosita vositalaridan foydalanishga bo'lgan umumiy tendentsiyasiga e'tibor beraylik.

Politsiya xodimi - asossiz hibsga olingan odamga, qamoqxonada:

– *Doctor Thomas, I am Edgar Hoover. Please accept our sincerest apologies. There has been a mistake of identity... Please have a seat... Help yourself Doctor, and accept our apologies... Please, go through the reception office (Thomas, 67).*

Mazkur muloqot vaziyati qiziqarli tus olgan, chunki ushbu o'rinda ikki xil ijtimoiy rol to'qnashadi: maqomga oid (tibbiyot doktori, olim) va pozitsion (politsiya xodimi). Bunday vaziyatda politsiyachi o'z pozitsiyasini olimnikidan pastroq deb biladi va nutqiy muloqotni ushbu tushunchalarga muvofiq tarzda voqelantirgan holda, takror-takror undan uzr so'raydi (“*Please, accept our sincerest apologies...*”) va hibsga olish sababini tushuntiradi (“*There has been a mistake of identity*”).

Mehmon – ofitsiantga:

(Getting up and shouting towards the tavern) Chappy! Bring me something tasty for dessert! (Valentine 165).

Ushbu misol buyurtma qilishga mo'ljallangan nutqiy akt bo'lib, preskriptiv ko'rsatmalarga tegishlidir, chunki uning bajarilishi ijrochi (ofitsiant) ning xizmat vazifalari doirasiga kiradi. Shunga o'xshash norasmiy sharoitda “*Couldn't you serve me...?*” yoki “*I would like to try...*” kabi xushmuomala iltimos shakllarining ishlatilishi ham noo'rin hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu vaziyatlarda elliptik tuzilmalardan foydalanish holatlari tez-tez uchrab turadi:

– *Chappy: another bench for uncle Rodger (Valentine, 166).*

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, elliptik tuzilmalar odatda vaqtni o'tkazib yubormaslik muhim bo'lgan holatlarda (ekstremal vaziyatlarda) yoki suhbatdoshlar nutqiy tuzilmani to'liq talaffuz etishni ortiqcha deb biladigan holatlarda qo'llaniladi (kichik qovoqxonada elliptik jumlar meyor, deb hisoblanadi).

Ushbu kommunikativ kontekstdagi harakatga undash holatlarida "well..." nutq birligi so'zlovchi dialogda yetakchi rolni o'z zimmasiga olganligi hamda tashabbuskor, asosan rag'batlantiruvchi replikalarning muallifi ekanligidan dalolat beradi.

1) *Harry You, my old man, are you Cuban? More...or less.*

Harry: Let's see, explain us what "more or less" means (Carringer, 33).

2) *Secretary to typist: And now, well, if that certainty of your hands are true. Stand before the minor file with your eyes closed and give me 4-B-43.* (Thomas, 24).

Ba'zi hollarda so'zlovchi suhbat jarayonida tashabbusni o'z zimmasiga olib, hech qanday vakolatsiz buyruq berishadi. Bunday urinishlar noo'rin kommunikativ xatti-harakatlar hisoblanib, odatda retsiptiyent tomonidan (ko'pincha noverbal tarzda) ma'qullanmaydi.

Politsiya xodimi tomonidan uzoq vaqt qidirilgan ayol to'satdan o'zi unga qahvaxonada uchrashuv tayinlaydi:

– *Meet you there in an hour. Don't be late* (Thomas, 146).

Ushbu muloqot matnida uzoq ijtimoiy masofadagi suhbatdoshlar (notanish yoki kam tanish bo'lgan) muloqot qilishiga qaramay, preskriptivlar qo'llaniladi. Suhbatdoshlardan biri yetakchi ijtimoiy o'ringa ega bo'lgan holatlarda buyruq maylidan foydalanish odatiy hol hisoblanadi. Telefon orqali noma'lum shaxs:

– *Have you read the newspapers today?*

– *No. Who is it?*

– *Do it and if you want your children healthy, take care of Gotman and don't get involved in what doesn't matter to you* (Thomas, 98).

Zero, tahdid va buyruqlarga qaramay, begona odam qo'pollik qilayotgan odamga nisbatan xushmuomala harakatga undash shakllaridan foydalanadi. (Qiyoslang: quyidagi misolda qurolli odam bilan bog'liq vaziyat tasvirlangan).

Do'kondagi odam kutilmaganda to'pponchani shartta tortib oladi:

– *Face to the wall! Let's go! Everyone!... You, from the press! Grab a copy of the blank edition! Have you heard me? Quickly! Go back to your place!* (Valentine, 315).

Qurolga ega bo'lgan "olomondagi" odamning mavqei ushbu muloqot vaziyatida ustun bo'lganligi sababli o'zini buyruq berish huquqiga ega deb biladi. Qurolsiz odamlar oldida o'zini kuchli his qilgan, shuningdek, vaqtning tanqisligini tushungan holda fursatni boy bermasdan, samarali muloqot postulatleri va tamoyillarining barchasini buzgan holda (qo'pollik, preskriptivlardan foydalanish va bevosita buyruq berish) nutqiy harakat olib boradi. Buyruq va farmoyishning preskriptiv direktiv nutqiy aktleri har qanday favqulodda holatlar hisobiga ko'pincha fe'lsiz, elliptik tuzilmalardan foydalaniladi.

Boshqa muloqot vaziyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyruq shakllarining qo'llanilishi muloqotning samarali kechishiga putur yetkazmoqda. Masalan, farrosh – teatrdagi yordamchisiga:

*Sweeper: And you get down from the looms and start sweeping!... Get down!
Rosa, Leave me! I can boss you around if I feel like it (Moallem, 56).*

Ushbu holat (buyruqqa bo'ysunmaslik) qiziq tus olgan, chunki har ikkala suhbatdosh ham ijtimoiy-ierarxik zinapoyada taxminan bir xil o'rinni egallaydi va ma'lum bir ishni birgalikda bajarishi kerak, ammo farrosh ayol yosh jihatdan Rozadan ancha katta. Shunga qaramay, Roza, qat'iyatli va o'zini himoya qilishni biladigan qiz, farroshga bo'ysunishni istamay, rad javobini uning o'zi ham buyruq bera olishini ifodalash orqali bildiradi.

Dramada chalasavod, madaniyati past insonlar guruhi hatti-harakatlarini (farroshlar, raqqosalar) kuzatish mumkin. Sahna asari davomida ular o'rtasidagi munosabatlar keskinligicha qolmoqda va shuni ta'kidlash mumkinki, butun asar davomida doimiy ziddiyatli muloqot namunalariga duch kelinadi. Farroshlar raqqosalar trupпасi kelishi munosabati bilan ularning ishi sezilarli darajada oshganidan norozi. Raqqosalarning ham o'ziga yarasha muammolari bor: ularni kutib olish tarzi, yashash sharoitlari va taklif etilgan ish haqidan norozi. Ularning nutqi buyruqlar, talablar, farmoyishlar bilan to'la:

– *Get out of the bathroom!*

– *What are you waiting for?*

(Knocking) – Get out of there already! (Moallem, 94).

“*Get out*” kabi qo‘pol harakatga undash shakllaridan tez-tez foydalanish hollari e'tiborimizni tortdi. Aftidan, ushbu ellipslashgan tuzilma “*I told you to go out*”, “*I told you to get out*” kabi qo‘shma ergash gaplardan shakllangan.

Boshqa bir misolni qiyoslasak: ona - o'g'liga:

I have said keep going! Don't argue with me and go! (Penelope Ward 96).

Ushbu muloqot matnida elliptik jumlar ko'pincha jamoaga murojaat qilishda ishlatiladi:

– *A little calm, gentlemen, I beg you a little calm. I appreciate... Silence, please! (Bell, 154).*

Quyidagi muloqot matnida suggestiv direktivlar qo'llanilganini ham kuzatish mumkin:

– *And what about me, haven't I a mouth? (Manuel hesitates.) Aren't you going to leave me without eating? (Carringer, 34).* Ushbu misolda ekzersitiv nutqiy aktining suggestiv tabiati bilvosita, tinglovchining obraziga tahdid soluvchi kinoya nutqiy aktlari orqali rasmiylashtirish usullari bilan izohlanadi, istakning pragmatik ahamiyati esa muloqot matniga asoslanib belgilanadi.

Ekzersitiv nutqiy aktlar, shuningdek, shart mayli vositasida ham ifodalanishi mumkin:

– *If you accept it, I'll invite you to have a cup of tea there, on the way to the station.*

– *Well, very pleased, - said Mrs. Ragnhild. – If my husband doesn't mind!*

– *No, no, not me. What inconvenience am I going to have, if it is about two good friends?* (Bell, 128).

Shart mayli vositasida faollashgan nutqiy tuzilmalar tahdidni ifodalash uchun ham ishlatilishi mumkin:

– *If you don't give me my suitcase, I report to you at the police station.*

– *Well, and if you report me at the police station, wherever I see you, I'll gouge out your eyes* (Bell, 127).

Shunday qilib, imperativ nutqiy tuzilmalar qo‘llanilishi ustunlik qilishiga qaramay, teng ijtimoiy maqomga ega simmetrik turdagi muloqot matnlari turli xil shakllar bilan ajralib turadi. Ushbu holat kommunikantlar o‘rtasidagi uzoq ijtimoiy masofa bilan bog‘liq bo‘lib, ularni xushmuomalalikni bildiradigan shakllardan, shu jumladan, istak va shart mayli kabi xushmuomalalikni bildiradigan shakllardan foydalanishga majbur qiladi.

Yaqin ijtimoiy-psixologik masofada ingliz tilida odatda rekvestiv va preskriptiv ekzersitivlarda ishlatiladigan buyruq mayli shakllari qo‘llaniladi:

Xotin - eriga: *Marry: Richard, don't drink. Don't get me drunk again!* (Valentine, 167). Ingliz muloqot matnida er va xotin ijtimoiy-ierarxik zinapoyada bir xil o‘rin egallashiga qaramasdan, ushbu misolda Merri o‘zini suhbatdoshidan ustun qo‘yadigan shaxs sifatida namoyon etadi va harakatga undash maqsadida shunga mos muayyan lisoniy shakllardan foydalanadi. Bunday kommunikativ xatti-harakatlar mizojning xolerik turiga xosdir.

- *Give me your hand, Chorina, don't leave me* (Bell, 248).

– *Leave me alone, will you? And remove your hands. Always playing* (Hannah, 236).

Ushbu misolda, buyruq nutqiy tizilmasidan keyin ishlatilgan *will you*, talabning qat‘iyiligini ifodalaydi va qahramonning g‘azablanganligiga ishora qiladi. *Katherine. Go alone, honey. What a bummer! Leave the men alone for a bit, will you?* (Valentine, 221).

Ammo ushbu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, postpozitsiyada turgan *will you* har doim ham so‘zlovchining g‘azablanishi yoki sabrsizligini ifodalab kelmaydi. Binobarin, quyidagi misolda u iltimosning xushmuomala tus olishiga xizmat qiladi. *Pass me the fruit, will you?* (Hannah, 36)

Shuningdek, teng ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan suhbatdoshlarga iltimos bilan murojaat qilish uchun shart maylidagi xushmuomalalikni ifodalovchi shakllardan foydalaniladi. Zamonaviy ingliz tilida endilikda faol ishlatilmaydigan harakatga undash ifodalanishining mazkur shakllari norasmiy muloqot sharoitlarida hazil tariqasida yangraydi:

Bazmda:

No drinking within reach of my hand. So I said:

Frankly speaking, gentlemen: would it be feasible for me to ingest, could I hope to taste or have some spirituous drink or generous wine broth? (Hannah, 47).

Preskriptiv direktivlar ham xuddi shunday ifodalanishi mumkin:

– *He did not answer. I insisted:*

– *Do a favour, answer when you are spoken to Salva, be a good Christian.* (Hannah, 51).

Ushbu misolda xushmuomalalikni ifodalovchi shakl *Do a favour* bilan ifodalangan harakatga undash talab ohangini namoyon etadi: qiyoslang, rus tilida. *Сделай милость, отвечай, когда с тобой разговаривают. Будь любезен отвечать...* Asarning bosh qahramoni, mizoj turlari tasnifiga ko‘ra, sangvinik hisoblanadi. Roman davomida biz uning kommunikativ xulq-atvorining o‘ziga xos jihatlarini kuzatdik va sangvinik temperamentiga xos bo‘lgan xushmuomalalik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, so‘zamollik kabi xususiyatlarning guvohi bo‘ldik.

Umuman olganda, ko‘rib chiqilayotgan yaqin ijtimoiy-psixologik masofadagi suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei va yoshi teng bo‘lgan muloqot matni imperativ shakllarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ushbu kontekstda ishlatiladigan ekzersitivlarning keng tarqalgan turi rekvestiv nutqiy aktlari hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik masofaning yaqinligi muloqot paytida suhbatdoshlarning kayfiyati va psixologik holatining turli xil nozik farqlarini yetkazadigan ko‘plab shakllarning, shu jumladan, o‘ta rasmiy shakllarning ham mavjudligidan dalolat beradi. Suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofaning yaqinligi tufayli ular harakatga undashni qo‘pol shakllaridan tortib rasmiy shaklgacha bo‘lgan juda ko‘p shakllardan foydalangan holda ifodalaydi.

Umuman olganda, ushbu turdagi muloqot matnlarida rekvestivlarning ishlatilishi ommalashganini inobatga olgan holda, harakatga undash nutqiy tuzilmarari melanxolik mizoj sohiblari tomonidan suggestivlardan, xolerik temperament - preskriptivlardan va sangviniklar - turli xil bilvosita shakllar bilan ifodalangan rekvestivlardan foydalanishga moyil ekanligi namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotning **“Ekzersitiv nutqiy aktlar ifodalanishining sotsiopragsmatik xususiyatlari”** nomli uchinchi bobi suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar turiga qarab sotsiopragsmatik tahlilga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqot uchun ma’lumot to‘plash maqsadida nutqiy aktlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan¹⁷ va ba’zi tanqidlarga qaramay, ushbu turdagi tadqiqotlarda ma’lumotlarni olishning asosiy vositasiga aylangan anonim so‘rovnoma tuzildi.

Etnografik usul kommunikativ kontekstda ma’lumotlarni to‘plash uchun mos deb hisoblansa-da, bir qator bahs-munozaralar va muammolardan xoli emas. Shunga qaramay, har bir lingvistik tadqiqotning maqsadi nutq subyektlarini tizimli kuzatishlarsiz muloqot qilish usulini topishdan iborat. Paradoksal ravishda, ma’lumotlarni faqat tizimli kuzatuvlar orqali olish mumkin¹⁸. Shunday qilib, har bir tadqiqot usuli tadqiqotchi uchun taxminiy xususiyatga ega, shuning uchun ham biz foydalangan usul yuqori tadqiqot salohiyatiga ega deb hisoblaymiz.

Olib borilgan so‘rovnoma doirasida o‘ylab topilgan kommunikativ vaziyatlarning tavsifini yozma ravishda taqdim etilgan bo‘lib, informantlar ushbu

¹⁷ Blum-Kulka S. Playing it safe: The role of conventionality in indirectness // Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. – Norwood, NJ: Ablex, 2000. – Pp. 31-37.

¹⁸ Labov W. The social motivation of a sound change. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 42 p.

vaziyatlarni tasavvur qilishlari va har bir vaziyat yoki savolga mos javoblarni tanlashlari kerak.

Sotsiopragmatik turdagi tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida informantlar uchta mezon bo'yicha bo'linib, natijalarni tahlil qilindi:

yosh: 18-35; 36-55; 55 va undan yuqori; jinsi: erkak / ayol; ta'lim darajasi: boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ma'lumot; mizoj turi: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.

Shunday qilib, natijalarni tahlil qilish, masalan, suhbatdoshlar orasidagi ijtimoiy masofani tashkil etuvchi ierarxiya yoki hukmronlik va do'stlik kabi, ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning har xil turlariga qarab amalga oshirildi. O'zaro munosabatlarning har bir turi ushbu ijtimoiy masofani va o'z navbatida lingvistik masofani belgilaydi. Olingan natijalarni taqdim etish uchun suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlar turiga qarab gorizontal va vertikal munosabatlardan iborat uchta katta guruh tuzildi.

Ushbu sotsiopragmatik tadqiqot uchun so'rovnomalar 18 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan, Koventri shahrida yashovchi 200 nafar informantlarga va Uorvik universiteti vakillari va talabalariga, shu jumladan 65 nafar erkak va 130 nafar ayol informantlarga taqdim etildi. Tadqiqot 2023-yilning fevral va mart oylarida o'tkazildi.

Informantlarga ekzersitiv nutqiy aktlardan iborat o'nta turli xil kommunikativ vaziyatlar taqdim etildi. Ular iltimos nutqiy aktlar voqelanishining ommalashgan to'rtta variantidan aynan ushbu muloqot vaziyatida o'zlari ishlatishni joiz topganlaridan birini tanlashlari kerak edi. Kommunikativ vaziyatlarning har biri ingliz muloqot matnida faollashuvi muqarrar bo'lgan turli xil vaziyatlardan tashkil topgan. Xuddi shu tarzda, har bir variant ushbu muloqot vaziyatlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan shakllarni namoyon etgan.

Savollar o'nta kommunikativ vaziyatdan iborat bo'lib, ularni so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga qarab uch guruhga bo'lish mumkin.

Vaziyatlarning birinchi guruhi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi simmetrik munosabatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan, iltimos do'sti, ukasi, hamkasbi va turmush o'rtog'iga murojaat etilgan holatlardan tashkil topgan. Ushbu muloqot vaziyatlarida suhbatdoshlar o'rtasida yuqori birdamlik va iltimos bilan murojaat etish borasida ko'proq ishonch mavjud. Shu sababli tinglovchining ijtimoiy obraziga tahdid o'tkazishi xavfi yuqori emas.

Ikkinchi guruh so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi assimetrik munosabatlarni namoyon etgan bo'lib, iltimos notanish odamlarga (sotuvchi, haydovchi, so'zlovchidan yoshroq notanish odamga) qaratilgan, so'zlovchi tinglovchiga nisbatan ijtimoiy-ierarxik zinapoyada yuqoriroq o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ular o'rtasidagi ijtimoiy masofa yaqin emas va tinglovchining ijtimoiy obraziga zarar yetkazish xavfi yuqori bo'lganligi tufayli, nutqiy tuzilma qo'pol tus olish ehtimoli ortadi.

Uchinchi guruh ham assimetrik munosabatlardan tashkil topgan bo'lib, ushbu o'rinda tinglovchi so'zlovchiga nisbatan ijtimoiy-ierarxik zinapoyada yuqoriroq o'rin egallagan va yuqori maqomga ega. Bunday vaziyatlarda iltimos boshliq,

shifokor, bobo/buviga qaratilgan bo'ladi. Suhbatdoshlar o'rtasida uzoq ijtimoiy masofa hukmronlik qilib, tinglovchining obraziga tahdid o'tkazish xavfi juda yuqori bo'ladi, garchi ushbu omil suhbatdoshlar orasidagi ishonch va yaqinlik darajasiga bog'liq bo'lsada.

Keltirilgan to'rtta muqobil variantlarning har biri taqdim etilgan kommunikativ vaziyatlarda umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, P. Braun va S. Levinson nuqtai nazariga asosan¹⁹, birinchisi va oxirgilari xushmuomalalik strategiyalariga mos keladi.

1. Salbiy hurmat tamoyillariga asoslangan birinchi strategiya. Mazkur shakl vositasida ifodalangan so'roq nutqiy tuzilmasi tinglovchining salbiy obraziga xavf soladigan bilvosita nutqiy akt sifatida namoyon bo'lgan. Shu bilan birgalikda, nutqiy tuzilma shart maylidagi *Could* fe'li bilan boshlanib, "*Please*" lisoniy birligi vositasida muloyimroq ohang berilgan.

2. Kinoya, kesatish vositasida faollashgan implitsit strategiyalar. Ular inkor so'roq shakllari orqali ifodalangan bilvosita nutqiy aktlardan tashkil topgan bo'lib, tinglovchining salbiy obraziga zarar yetkazadi, chunonchi ko'p hollarda shama, kinoya orqali tinglovchining harakatlariga ta'sir o'tkazish niyati ko'zlangan bo'ladi. Mazkur shakllar taklif etilgan variantlar ichida eng qo'pol ifodalar vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlar nazariyaga binoan, muloqot intensiyasi botinan ifoda topgan bo'lsa-da, ma'lum bir kommunikativ vaziyatlarda ushbu tuzilmalar ijtimoiy obrazga tahdid soluvchi harakatlarga aylanadi.

3. Keyingi variant zohiran ifodalangan, bevosita nutqiy aktlarga to'g'ri keladi, ya'ni ma'lum bir muloqot matnida tinglovchining obraziga tahdid solish xavfli yuqori bo'lgan, hurmat tamoyillariga tayanilmagan nutqiy aktlarni o'z ichiga oladi. Ular buyruq maylidagi hech qanday yumshatuvchi elementlarsiz ifodalangan.

4. Binobarin, oxirgi variant, nokonvensional bilvosita nutqiy aktlar sifatida birinchi variantdan farqli o'laroq, nutqiy tuzilma "*excuse me*" iborasi bilan boshlanadi, ya'ni ichki sintaktik yumshatuvchi funksiyasi bilan xushmuomalalik ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, nutqiy tuzilma *no* inkor shakli bilan boshlanadigan so'roq shaklida taqdim etilgan. Ushbu turdagi nutqiy aktlar tinglovchining oqilona xulosa qabul qila olish xususiyatiga ishongan holda talaffuz etishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu variantlarning har biri, olib borilgan tadqiqotimizga asosan, ingliz muloqot matnida iltimos nutqiy aktini amalga oshirishda ishlatiladigan asosiy til formulalarini asosan ochiq va bilvosita strategiya orqali salbiy xushmuomalalik (yoki masofa) orqali aks ettiradi, zero ushbu omillar madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilish shakllariga asoslanadi. Odatda ochiq va bilvosita strategiya va salbiy xushmuomalalik bilan ifodalangan ikki xil variant tanlanadi, binobarin, mazkur strategiyalar odatda nutqni yumshatish tendentsiyasini namoyish etadigan Buyuk Britaniya jamiyatida eng ko'p uchraydi.

Yaqin ijtimoiy munosabatlarda bo'lgan inglizlarning iltimos nutqiy tuzilmalari tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular

¹⁹ Brown R. Levinson S. *Universals in Language Usage: Politeness Phenomena // Questions and Politeness: Strategies in Social Interaction.* – Cambridge Univ. Press. – 1978. – P. 56-289.

to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan bevosita nutqiy aktlarni afzal ko'rishadi hamda nutqiy tuzilma qat'iyligini yumshatuvchi vositalar va implitsit shakllardan foydalanishga hojat yo'q deb hisoblaydilar. Buni bizning tadqiqotimizda faqat do'stlarga yo'naltirilgan iltimoslar bilan isbotlash mumkin. Nabiraning bobosiga murojaat qilingan nutqiy vaziyatlarda, inglizlar 56% hollarda Angliyada qo'llanilishi ommalashgan shakl sifatida 1-variantni afzal ko'rishdi: *"Please, Grandpa, could you(s) open the door, since they are knocking?"*. Ushbu ma'lumotlar bizni asosiy bo'lgan hissiy turdagi elementlarni tahlil qilishga olib keladi. Garchi bu munosabatlar boboning ijtimoiy mavqei (yoshi va oiladagi o'rni) tufayli assimetrik bo'lsa-da, lekin ushbu holda so'zlovchi nafaqat bilvosita nutqiy aktlarni afzal ko'rish orqali o'z nutqiy aktini yumshatishga harakat qiladi, balki asosan salbiy xushmuomalalik strategiyasidan ham foydalandi, chunki ushbu shakl Angliyada qo'llaniladigan hurmat tamoyillariga asoslangan shakl (ijtimoiy-madaniy aspekt ham buni tasdiqlaydi) bo'lib, ma'lum bir vaziyatda kommunikativ intensiyaning bir qismi sifatida his-tuyg'ular va do'stlikni ifodalovchi elementni o'z ichiga oladi. Kinoya nutqiy aktlari deyarli ishlatilmagan (1%), chunki *"Don't you realize that there's a knock at the door, Grandpa?"* shakli mutlaqo odobsiz va qo'pol tus olgan hamda maxsus vaziyatda iltimosni amalga oshirishning shartli shaklini anglatmaydi. Agar ingliz jamiyati bugungi kunda oilaviy rollarni taqsimlash bo'yicha an'anaviy ekanligini hisobga olsak, ushbu vaziyatda ustun bo'lgan 1 va 4-variantlarda bo'lgani kabi, yetarli darajada yumshatish bilan ko'proq muloyim nutqiy harakatlarga murojaat etiladi.

Umuman olganda, tinglovchi so'zlovchiga nisbatan balandroq ijtimoiy mavqega ega bo'lgan assimetrik turdagi ijtimoiy munosabatlarning oxirgi guruhiga nisbatan natijalar uchta kommunikativ vaziyatda salbiy xushmuomalalik bilan bilvosita turdagi strategiyalarning ustunligini ko'rsatdi. 1-variantning qo'llanilishi 4-variantdan ustunroq ko'rilgan.

Tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy bosqichida diskurs nazariyasi va matn tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri pragmakognitiv mexanizmlar to'plamini, shuningdek, ma'lum bir nutqiy vaziyatda yuqori kommunikativ natijalarga erishish maqsadida nutqiy ta'sirining eng maqbul usullarini tanlash tamoyillarini shakllantirishdir. Shu sababli, ushbu tadqiqotda ingliz tilida harakatga undash istagini voqelantiruvchi lisoniy shakllar bilan bir qatorda ma'lum til vositalarini tanlashga ta'sir etuvchi psixologik, pragmatik, ijtimoiy va milliy-madaniy omillarga alohida e'tibor qaratildi.

So'rovnomada keltirilgan o'n turdagi kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish natijasida ingliz tili sohiblari orasida hurmat tamoyillariga asoslangan harakatga undashning bilvosita shakllarini qo'llash ustunlik qilishi isbotlangan. Bizning so'rovnomamizda ushbu shakllar konvensional va nokonvensional nutqiy aktlari sifatida keltirilgan va respondentlar tomonidan birinchi navbatda konvensional nutqiy aktlarini (45%), so'ngra nokonvensional bilvosita nutqiy aktlarni (30%) tanlashga moyillik kuzatildi.

Ingliz madaniyati vakillarining ijtimoiy munosabatlar turidan qat'i nazar (simmetrik yoki assimetrik), harakatga undashning ekzersitiv nutqiy aktlarini yumshoqroq va muloyim tarzda amalga oshirishda nafaqat suhbatdoshlarning

ijtimoiy mavqei, ularning maqomi va ierarxik zinapoyadagi o'rni, balki har bir madaniyatga xos bo'lgan unsurlar, nutqiy tuzilma faollashayotgan muloqot vaziyati ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli ham ayni bir xil illokutiv akt turli xil kommunikativ muhitda bir xil tarzda amalga oshirilmaydi.

Suhbatdoshlar o'rtasidagi simmetrik ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'zaro ishonch yuqori darajada o'rnatiladi, shuning uchun tinglovchi unga qaratilgan harakatni o'z imidjiga tahdid sifatida qabul qilmaydi, natijada so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilvosita nutq harakatlari orqali aniq namoyon bo'ladi. So'rovnomaning javoblarida bilvosita nutqiy aktlarini tanlash jami 19%ni tashkil etdi, ammo simmetrik munosabatlar mavjud bo'lganda, respondentlarning 41% ushbu nutq strategiyasini tanladilar.

Ba'zi hollarda nutqiy aktlarining kommunikativ intensiyasi (masalan, istehzo, kinoya) adresat obraziga tahdid orqali harakatga undash sifatida namoyon bo'ladi. So'rov natijalariga ko'ra, ushbu turdagi nutqiy aktlarini tanlash atigi 6% ni tashkil qiladi, xolos va ularning qo'llanilishi asosan simmetrik turdagi ijtimoiy munosabatlarga to'g'ri keladi. So'zlovchi tinglovchiga qaraganda pastroq ijtimoiy mavqega ega bo'lganda asimmetrik ijtimoiy munosabatlar guruhida so'zlovchining obraziga tahdid soladigan bilvosita nutqiy harakatlarni tanlash juda past ko'rsatkichlarni (1%) namoyon etdi. Binobarin, aynan assimetrik ijtimoiy munosabatlar sohasida ekzersitiv nutqiy aktlarida adresat obraziga tahdid qilish ehtimoli juda yuqori hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek, kontekstual xususiyatlar iltimos nutqiy aktining faollashuviga ta'sir etadi. Shunga ko'ra, ingliz jamiyati salbiy turdagi xushmuomalalikka yoki uzoqlashtirish strategiyasiga moyil degan nuqtai nazar qo'llab-quvvatlanadi. Bizning kuzatishlarimiz natijalariga ko'ra, ingliz tili sohiblari umum qabul qilingan me'yorlarga rioya qilish va yumshatilishlardan foydalanishga intilayotgan madaniyat vakillari hisoblanishadi.

XULOSA

1. Ekzersitiv nutqiy aktlarini tavsiflash muammosi keng va ko'p qirrali bo'lib, suhbatdoshlarning amaliy ehtiyojlariga yo'naltirilgan tilshunoslik rivojlanishining zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda, ko'zlangan muqobil kommunikativ ta'sirga erishish uchun ma'lum bir muloqot sharoitida nutqiy ta'sirining eng mos usullarini tanlashga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish juda muhimdir.

2. Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi ekzersitiv nutqiy aktlarning nafaqat lisoniy xususiyatlarini tadqiq etadi, balki ekzersitiv intensiyani amalga oshirish uchun muayyan til vositalarini tanlashning bir qator pragmatik, ijtimoiy va individual omillarga bog'liqligini tahlil etadi. Ushbu holatlarni pragmatik va sotsiolingvistik omillar ta'siri bilan izohlash mumkin. Ijtimoiy rollar, kommunikantlarning ijtimoiy-ierarxik zinapoyadagi o'zaro munosabatlari, ular o'rtasidagi munosabatlarning yaqinlik darajasi, shuningdek, muloqot muhiti kommunikativ vaziyatining eng muhim pragmatik parametrlari bo'lib, ular birgalikda

kommunikativ kontekstni tashkil etadi va ekzersitiv shakllarni tanlashga ta'sir etadi.

3. Grammatik nuqtai nazardan qaraganda, ingliz tilidagi ekzersitiv nutqiy aktlarning barcha mayllar va turli xildagi nutqiy tuzilmalar orqali harakatga undashning har xil tushadigan voqelanish xususiyatlari aniqlangan. Ingliz tilidagi ekzersitiv nutqiy tuzilmalarning milliy-madaniy o'ziga xosligi odob-axloq me'yorlariga asoslangan nutqiy vaziyatlarda, leksik-semantik hamda stilistik darajalarda namoyon bo'ladi. Ingliz tilida muloqot qiluvchilar bevosita imperativ shakllardan ko'ra, muayyan darajada turli xil bilvosita lisoniy vositalardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Ingliz tilida so'roq nutqiy tuzilmalar harakatga undash vazifasida asosan ijobiy shaklda qo'llaniladi. Bizning nazdimizda, mazkur xususiyatlar (imperativ konstruksiyalarni "will you?" fe'li bilan yumshatish va hokazolar) ingliz tilida ekzersitiv nutqiy aktlar faoliyatining milliy-madaniy o'ziga xosligining namoyon bo'lishi hisoblanadi.

4. Ushbu tadqiqot doirasida, shuningdek, shaxsning individual xususiyatlari ta'siri ostida ekzersitiv nutqiy aktlar voqelanishining ommalashgan shakllari tavsiflanadi. Suhbatdoshlarni harakatga undashni ifodalashda nutq sub'ektlarining mizoji, psixologik xususiyatlari, muloqotni amalga oshirish jarayonidagi ruhiy holatiga qarab turlicha ifoda etadilar va unga munosabat bildiradilar. Temperament turiga qarab, biz badiiy qahramonlarni an'anaviy tasnifga ko'ra xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxoliklarga ajratdik.

5. Badiiy asarlar qahramonlarining u yoki bu xarakterga xos xususiyatlarini kuzatdik va ularni psixologiyada qabul qilingan shaxslarning mizoj turlarini tavsiflash bilan muvofiqlashtirib, tavsifga aniq mos keladiganlarini ma'lum bir temperament turiga kiritdik. Tabiatda mizojning mutlaq, sof turlari mavjud emasligini yodda tutgan holda, shunga qaramay, ustuvorlik qiluvchi temperament turiga ega bo'lgan qahramonlarni ajratish orqali harakatga undash sharoitida ularning kommunikativ xatti-harakatlarining maqbul xususiyatlarini aniqlash imkoniyati tug'ildi.

6. Ekzersitiv nutqiy aktlarni voqelantirishda individual omillar, masalan, kommunikantlarning fe'l-atvori va temperamentining o'ziga xos xususiyatlari ham ta'sir qiladi. Kommunikantlar, badiiy qahramonlarning ekstrovertlik darajasi oshishi bilan ekzersitiv nutqiy tuzilmalarning bilvosita shakllardan foydalanish ehtimoli oshadi. Emosional barqarorlik darajasi oshishi bilan esa ekzersitivlarning qarama-qarshi turlari talab (xoleriklar holatida) yoki iltijolardan (melanxoliklar holatida) foydalanishga moyillik oshib boradi.

7. Nutq subyektlarining fe'l-atvoriga qarab, tadqiq etilgan badiiy asarlarning ko'plab qahramonlarini yetakchi yoki ikkilamchi kommunikantlarga ajratish mumkin. Yetakchi kommunikantlar nutqiy vaziyatdan qat'iy nazar asosan preskriptiv ekzersitivlarga murojaat qilish an'anasi kuzatildi. Ikkilamchi kommunikantlar, aksincha, hatto yuqori ijtimoiy mavqe yoki katta yoshga ega bo'lgan muloqot muhitida ham, rekvestiv va suggestiv turlarni ishlatishga moyildirlar.

8. Neytral, simmetrik kommunikativ kontekstlarda sangvinik temperamentiga xos nutq subyektlarining harakatga undashni voqelantirishda turli bilvosita

usullaridan ko‘proq foydalanishga moyilligi aniqlandi. Shuningdek, ularning suhbatga kirishimliliigi va atrofdagi voqelikni nekbin (optimistik), ijobiy idrok etishi namoyon bo‘ldi. Xolerik temperament vakillari o‘zlarining jamiyatdagi o‘rnini haddan tashqari yuqori baholashga, teng ijtimoiy munosabatlar bo‘lmagan nutqiy vaziyatlarda preskriptivlardan foydalanishga moyildirlar. Ular aksariyat hollarda boshqa temperament egalariga qaraganda harakatga undashda imperativ, hozirgi va kelasi zamonlarni ko‘proq ishlatadilar.

10. Melanxoliklarning o‘ziga bo‘lgan ishonchning sustligi, hissiy qaramlik va o‘zgalardan hamdardlik kutish xislatlarini namoyish etishga moyilligi kuzatildi. Melanxoliklar adresat ulardan kutgan harakatni amalga oshirishni istamasligi presuppozitsiyasi bilan ajralib turganligi sababli rekvestivlarning iltijo, sabablarni batafsil tushuntirishni o‘z ichiga olgan iltimos kabi guruhlarini ishlatishadi. Flegmatik temperament vakillari o‘zlarining hissiy barqarorlik xususiyatlari bilan ajralib turishadi. Shunga ko‘ra, odatda ular kommunikativ kontekstni yetarli darajada idrok etib, til vositalaridan tegishli tarzda foydalanishadi.

11. Lisoniy, ijtimoiy, madaniy va diskursiv omillar muloqot matnida harakatga undash shakllarining ifodalanishiga ta’sir qiladi. Biroq, ushbu omillarning har birini lisoniy vositalar tanlovida qay darajada ta’sir etish ulushini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabaqalashtirish oson emas. Shuning uchun temperament, yosh, jins, suhbatdoshlarning ta’lim darajasi kabi boshqa qo‘shimcha omillarning ulushini inobatga olish zarur. Bundan tashqari, so‘rovni qabul qilgan adresatlarning javobi va keyingi harakatlari ham muloqot strategiyasini tanlashda bevosita ta’sir qiladi.

12. Ekzersitiv nutqiy aktlarini tavsiflash muammosining ko‘p qirraliligi tufayli ularning rasmiy (leksik-grammatik) va kommunikativ (pragmatik, ijtimoiy va individual) xususiyatlarini tavsiflashda batafsil to‘xtalishga qaror qilindi. Shunga qaramay, lisoniy birliklar faoliyatining milliy-madaniy, ijtimoiy va individual jihatlarining yetarlicha o‘rganilmaganligi tadqiqotchilar uchun keng istiqbollarni qoldiradi. Ushbu mavzu doirasida, bizning nazdimizda, shaxsning individual xususiyatlarining motivatsiyani amalga oshirishga ta’sirini batafsilroq tavsiflash uchun psixologiya va tilshunoslik chorrahasida tadqiqot o‘tkazish qiziqarli bo‘lar edi. Ushbu mavzu bo‘yicha bo‘lajak tadqiqotlar ingliz yoki boshqa bir roman-german tillarida ekzersitiv nutq aktlarining qo‘llashini kontrastiv o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03.30.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

НИЯЗОВА ДИЛДОРА ФУРКАТОВНА

**СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РЕАЛИЗАЦИИ
ЭКЗЕРСИТИВНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В ДИСКУРСЕ**

10.00.04 – Язык и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2022.1.PhD/Fil2214 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Науки и Инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyounet» www.ziyounet.uz.

Научный руководитель: Шамахмудова Азиза Фуркатовна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Насруллаева Нафиса Зафаровна
доктор филологических наук, доцент профессор


Джалилова Зарнигор Обидовна
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/ 83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz. Samarqand davlat chet tillar instituti bosh binosi).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 61789 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" yanvar dagi № 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.A.Yaxshiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S. Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в развитии мирового языкознания значимую позицию занимает объём исследований, связанных с анализом роли речевой деятельности в социальной жизни человека, а также средств, являющихся основой её эффективной реализации. Следовательно, современное языкознание охватывает как междотраслевые подходы, так и ряд вопросов и теорий в научной сфере. Развитие таких областей, как когнитивная лингвистика и прагмалингвистика, наряду с данными подходами, создало необходимость для поиска решения новых проблем, актуальных для мирового сообщества. По этой причине лингвистическое описание объективной действительности значительно пополнилось экстралингвистическими знаниями, в частности, большую значимость для учёных имеют новые выводы, обеспечивающие лучшее понимание коммуникации и взаимоотношений между людьми в различных лингвокультурах.

В связи с переформированием национальной языковой картины мира в мировом языкознании, актуальность исследования данной темы определяется отсутствием общепринятого определения понятия речевых актов и их единой признанной типологии в научной литературе, отсутствием научной обоснованности актуализации речевых актов побуждения к действию в разносистемных языках в качестве культурного явления. С этой точки зрения, изучение национально-культурных и лингвопрагматических свойств экзерситивных речевых актов в английском языке имеет большую научную и практическую значимость. В международном научном обществе лингвопрагматический анализ единиц языка и речи осуществляется в рамках перформативных речевых актов, основ вежливости и взаимной коммуникации, а также других лингвокультурных, прагматических теорий. Такой анализ позволит раскрыть лингвокультурные и прагматические свойства речевых актов побуждения к действию в английском языке, правильно интерпретировать их в процессе коммуникации, а носителям языка - побудить к выполнению слушателем функции конкретного речевого действия.

В годы независимости в узбекском национальном языкознании сформировался опыт исследования языковых и речевых систем с применением современных принципов, творческого усвоения передовых идей, действующих в мировой науке. Внедрение международных программ по преподаванию иностранных языков в нашей стране стало импульсом для проведения научных исследований в сфере прагмалингвистики. Согласно указу “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, на повестку дня был поставлен вопрос “внедрения передовых стандартов высшего образования, исходя из международного опыта, в том числе постепенного перехода от образования, направленного на получение теоретических навыков, к системе образования,

направленной на формирование практических навыков, в учебных программах”²⁰, и это также создаёт необходимость обогащения сферы современного языкознания инновационными принципами и критериями.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, установленных указами Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана”, №УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, №УП-5850 от 21 октября 2019 года “О мерах по кардинальному повышению авторитета и статуса узбекского языка в качестве государственного языка”, постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-1875 от 10 декабря 2012 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков”, №ПП-2909 от 20 апреля 2017 года “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, №ПП-3775 от 5 июня 2018 года “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, реализуемых в стране”, №ПП-5117 от 19 мая 2021 года “О мерах по поднятию деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень”, а также рядом других нормативно-правовых актов.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей при социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства, и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В исследованиях по социопрагматике изложен ряд ценных мнений, имеющих большую значимость для языкознания. В том числе, следует особо отметить концепции таких учёных, как Дж.Остин, Дж.Сёрль, П.Грайс, Л.Куммингс, Х.Хаверкате, В.Эскандел, Р.Фуентес, И.П.Сусов, В.В.Богданов, Г.Г. Почепцов, Ш. Сафаров, М. Хакимов, А.Ф. Шамахмудова и др.²¹.

²⁰Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” // Народное слово, 09.10.2019, №209 (7439)

²¹Austin J.L. *Cómo hacer cosas con palabras*. – Barcelona: Edición Paidós Ibérica, S.A., 2004. – 220 p.; Searle J.P. *Expression and meaning. Studies in the theory of Speech Acts*.–Cambridge: CUP, 1979. P. 48-53;Grice H.P. *Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol.3: Speech acts*. – New York: Academic Press, 1975. – P. 45-58; Cummings L. *Pragmatics. A Multidisciplinary Prespective*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2005. – 336 p.; Haverkate H. *Aproximaciones pragmalingüísticas al español*. – Amsterdam: Ediciones Rodopi, 1993. – 149 p.; Escandell V., María V. *Introducción a la pragmática*. – Barcelona: Ariel, 1999. – 278 p.; Fuentes R.C. *Lingüística pragmática y análisis del discurso. Serie Bibliotheca Philologica*. – Madrid: Arco Libros, 2000. – 415 p.; Gil J.M. *Introducción a las teorías lingüísticas del siglo XX*. – Buenos Aires: Ed. Melusina, 1999. – 310 p.; Сусов И.П. *Лингвистическая прагматика*. – Винница: «НоваКньга», 2009. – 272 с.; Богданов В.В. *Речевое общение. Прагматические и семантические аспекты*. – Л.: ЛГУ, 1990. – 88 с.; Почепцов Г.Г. *Коммуникативные*

В зарубежных научно-исследовательских центрах основной акцент делается на определении классификационных свойств экзерситивных речевых актов и выделение их функционально-семантических признаков²². Вместе с тем, формируется тенденция анализа экзерситивных речевых актов посредством сравнительно-сопоставительных методов²³.

Традиции актуализации речевых действий с прагматической целью побуждения слушателя к действию также, несомненно, не остались без внимания учёных-лингвистов²⁴.

